



## O'ZBEKISTONDA KINO SAN'ATINING PAYDO BO'LISHI HAMDA RIVOJLANISHI

**Gulbaxar Bekniyazova**

O'zDSMI Nukus filiali "Rejissyorlik san'ati" kafedrası, docent

**Karamatdinova Ulmanay**

O'zDSMI Nukus filiali 1-kurs studentı

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10170239>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Kino san'atining paydo bo'lishi, rivojlanishi, O'zbekistonga kirib kelishi va rivojlanishi, O'zbek milliy kinematografiyasi, kino san'ati rivojlamishiga hissa qo'shagan insonlar hamda dastlabki olingan kinolardan tortib hozirgi kunda ham olinayotgan kinolar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kino san'ati, kinematograf, san'at, poetik kino, maxfiy kino, yozuvchi-dramaturg, rejissyor, aktyor, operator, rassom, kompozitor.

**Аннотация:** В данной статье приводятся сведения о зарождении и развитии кинематографии, его проникновении и развитии в Узбекистан, узбекском национальном кинематографе, людях, внесших вклад в развитие кинематографии, а также о первых фильмах, которые снимаются и сегодня.

**Ключевые слова:** кинематография, кинематографист, искусство, поэтическое кино, тайное кино, писатель-драматург, режиссер, актер, оператор, художник, композитор.

**Annotation:** This article provides information about the emergence and development of cinematography, its entry and development into Uzbekistan, Uzbek national cinematography, people who contributed to the development of cinematography, as well as from the first films that are still being made today.

**Key words:** cinematography, cinematographer, art, poetic cinema, secret cinema, writer-playwright, director, actor, cameraman, artist, composer.

Kino san'ati — kinematografiya ning texnik vositalar asosida shakllangan badiiy ijod turi, ekran san'atining muhim tarkibiy qismi, real borliqni aynan yoki badiiy-hujjatli obrazlar, multiplikatsiya vositalari yordamida suratga olish; kinofilmlarning omma orasida keng tarqalishi uchun xizmat qiladigan televideniye, videokasseta va videodisklarni ham o'z ichiga oladi. Kino san'ati kinematograf bilan bir vaqtda paydo bo'ldi. Kinematograf esa fan va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga keldi va asta-sekin zamonaviy iqtisod, san'at va madaniyatning eng zarur sohasiga aylandi. Kino 1895-yil Parijda yuzaga kelgan. Uning yuzaga kelishi, o'z navbatida, insoniyatning badiiy





madaniyati tarixida ob'ektiv qonuniyat bosqichi bo'ldi. Kino yeda adabiyot, teatr, tasviriy san'at va musiqa tajribalari, uning estetik jihatlari uyg'unlashtirilib, o'ziga singdirilgan holda voqelik o'ziga xos ifoda vositalarida fotog'rafik tasvir orqali ko'rsatiladi. Kino san'atining ommani ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan tarbiyalashda, kishilar ongi, fikr va qarashlari, estetik did va histuyg'ulari, umuman, ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyaviy-badiiy ta'siri kuchlidir. Kino san'atining qaror topishida amerika kinorejissyori D.Griffitnit xizmatlari katta. Birinchi bo'lib, u yirik plan, parallel montaj, kengaytirilgan panorama kabi ifodali vositalarni qo'llagan. Shuningdek, S.Eyzenshteyn, Ch.Chaplin, E. Shtrogeym, K.Dreyer, K.Vidor, R.Kler qabilar ham jahon kinosi rivojiga munosib hissa qo'shdilar. 20-asrning 1-yarmida Kino san'atining janr tizimidan ko'proq komediya harakteridagi sarguzasht hamda qo'rqinchli filmlar o'rin oldi. 20-yillardan kinoda turli uslubiy izlanishlar bo'ldi. Masalan "ekspressionizm", "poetik kino", "maxfiy kino" harakati, "ochiq kino" va boshqaKeyinroq turli mavzular qatori kinohikoyalarga alohida e'tibor berildi. Ko'proq ma'lum bir tarixni hikoya qiluvchi filmlar ko'paydi. Urushdan keyingi yillar rivojlangan mamlakatlarning ilg'or kinematografchilari ishlagan filmlar, ayniqsa, italiya neorealizmi ekran san'atining asosini tashkil etdi. 50-yillarning oxirlari Kino san'atida kino va televideniyeining o'zaro bir-biriga ta'siri, bir necha soat davom etadigan filmlar ishlash kabi muhim o'zgarishlar yuz berdi. Ayni bir vaqtda Kino san'ati bilan bog'liq teleekran ijodi paydo bo'ldi va rivoj topdi.Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi kabi ko'pgina mamlakatlarda yangi kinematografiyaning paydo bo'lishi, bir qator g'arb davlatlarida o'ziga xos kinematografik maktablarning rivojlanishi kino mahsulotlarining xilma-xilligini ta'minladi. Kino san'ati janr va uslub jihatdan boyidi. Ekran ijodida polifoniyaning turli shakllari qo'llanila boshladi.Rivojlangan mamlakatlarda eski janrlarning o'ziga xos qayta uyg'onish davri boshlandi. Birinchi navbatda, melodrama hamda kinematografik bayonda an'anaviy shakllarning jonlanishi ko'zga tashlandi. Ayni vaqtda yangi televizion tizim (kabelli televideniye), yer yo'ldoshi orqali o'zatiladigan ko'rsatuvlar, videomagnitofon, videokasseta, videodisklarning keng tarqalishi natijasida Kino san'atining rivojlanishi murakkablashdi.Kino san'ati asarlari yozuvchi-dramaturg, rejissyor, aktyor, operator, rassom, kompozitor kabi ijodiy xodimlardan iborat jamoa mahsulidir. Kinoda rej. yetakchi rol o'ynaydi. Film yaratish 2 tomonni — ijod va ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Kino ishlab chiqarishning markazi — kinostudiya. Tayyor filmlar kinoprokat orqali tarqatiladi va ular kinoteatr, televideniyeida ko'rsatiladi. Ekran san'atining o'ziga xos ifoda vositalari bor: umumiy, o'rta va yirik planda suratga olish, turli





rakurslarda kameralar harakati, epizod va kadrlar montajining turli shakllari va boshqa Kino san'atining 4 asosiy turi mavjud: badiiy film, ilmiy-ommaviy kino, hujjatli kino va multiplikatsion kino. Shulardan badiiy film Kino san'atining asosiy turlaridan bo'lib, maxsus yozilgan ssenariy yoki qayta ishlangan badiiy adabiyot (hujjatli yoki badiiy proza, teatr dramaturgiyasi va boshqalar) asosida ijodning ijroviy vositalari yordamida real yoki to'qima voqealarning bayon etilishi; ilmiy-ommaviy kino tomoshabinlarni tabiat va jamiyat hayoti, ilmiy kashfiyot va ixtirolar bilan tanishtiradi. Kino san'atining yana bir muqim turi — multiplikatsion kino. Eng keng tarqalgan shakllari rasmi va qo'g'irchokli filmlardir. Rassom chizgan rasmlar yoki maketlar, shuningdek, qo'g'irchoqlar harakatlantirilib kinotasmaga tushiriladi. O'zbekistonda birinchi film 1897-yil "Eski jo'va" maydonida ko'rsatilgan. 1908-yildan Toshkent, Samarqand, Qo'qon va boshqa shaharlarda chet el filmlari namoyish etilgan. O'rta Osiyoda ko'rsatilgan kinolentalar, asosan, Amerika, Fransiyaning Sharq ekzotikasi tasvirlangan filmlaridan iborat bo'lgan. O'zbek milliy Kino san'ati 20-asrning 20-yillarida vujudga keldi. Birinchi o'zbek kinooperatori Xudoybergan Devonov o'zining ilk hujjatli-xronikal filmlarida o'zbek xalqining hayotini, urf-odatlarini, Xorazm manzaralarini aks ettirishga intilgan.

1924-yil rus-buxoro shirkati "Buxkino", 1925-yil Toshkentda "Sharq yuldo'zi" (1936-yildan "O'zbekfilm") kinofabrikasining tashkil bo'lishi o'zbek Kino san'ati rivojini boshlab berdi. Lekin milliy kadrlarning yetishmasligi natijasida studiyani tashkil etishga urinish va "Buxkino" shirkati qoshida muntazam suratga olishni tashkillashtirish muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Toshkent studiyasiga hali kino sohasida yaxshi tanilmagan rus kino arboblarning kelishi, ularning kasbiy saviyasining pastligi haqiqiy milliy mazmundagi kinolar yaratishga yo'l qo'ymasdi. Ular yaratgan filmlar faqat ekzotik va tashviqiy harakterda bo'lib, o'zbeklar hayoti bo'zib ko'rsatildi, o'zbek ayollari rolini rus aktrisalari o'ynashi natijasida qahramonning ichki dunyosi, uning psixologik kechinmalari ochib berilmasdi [mas, "O'lim minorasi" (rej. V. Viskovskiy), "Musulmon qiz" (D. Bassaligo), "Ikkinchi xotin" (M. Doronin) va boshqa]. Kino ishlashda milliy proza va dramaturgiyadan foydalanishdan bosh tortish, o'zbek hayotini bilmaydigan rus mutaxassislarining o'zlari yozgan ssenariylari asosida film yaratishi milliy kino uchun juda katta yo'qotish bo'ldi, o'zoq yillargacha o'z shakl-shamoyiliga ega bo'lolmadi, uning "o'zbek milliy kinosi" sifatida shakllanishiga o'tib bo'lmas to'siq bo'ldi. Ovozsiz filmlarda berilgan mazmun tomoshabinga ko'proq Yevropa mutaxassislari nuqtai nazarini ifodaladi, chunki milliy an'analarni bilishdan yiroq mualliflarning asarlari shu ruxda yaratilgan edi. 20-yillar yaratilgan





"Soyabon arava", "Ravot qashqirlari" , "Makrli changal" "Chodira" kabi filmlar shular jumlasidan. Ovozli kinoning yuzaga kelishi o'zbek Kino san'atining ham badiiy qiymatini oshirdi. Birinchi o'zbek ovozi filmi "Qasam"da milliy aktyorlik madaniyati, o'zbek hayoti va psixologiyasi mufassal aks etdi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar asosiga qurilgan dramaturgiya namoyon bo'ldi. Chunki barcha bosh rollarni o'zbek aktyorlari o'ynagan edi. Lekin baribir asar ovozsiz kino davridagi eski kino madaniyati qoldig'utridan xoli bo'lolmagani sababli o'tmish va bugungi kun o'rtasida arosatda bo'lib qoldi. Shu sababli, o'sha davrda yaratilgan Gro'ziya, Ozarbayjon filmlari kabi eng yaxshi filmlar darajasiga ko'tarila olmadi. O'zbek kinosining muboshiri bo'lgan "Nasriddin Buxoroda" filmi xalq mavzusining haqiqiy imkoniyatlarini ochib berdi, tasviriy vositalar qatorini qanday chiroyli va ifodali qurish mumkinligini ko'rsatdi, yuqori darajadagi ijro uslubini o'rgatdi. "Tohir va Zuhra" filmi xalq ertaklari asosida yaratiladigan filmlar chegarasini "bo'zib" o'tgan holda tarixiy filmlar yaratishga asos soldi, milliy ruhdagi ifodali o'yin imkoniyatlarining naqadar kengligini his etishga imkon berdi. Keyinroq yaratilgan "Alisher Navoiy" filmining yaratilishiga "Tohir va Zuxra" kinosi muhim poydevor bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, "Boy ila xizmatchi", "Qutlug'qon" "Shohi so'zana" kabi badiiy asarlar ekranlashtirildi.

O'zbek kinosida yoshlarda zamon talablariga yangicha qarash shakllandi, eski qolip va taxminlardan o'zoqlashdilar, dunyoga shoirona nazar tashlash imkoniyatlari namoyon bo'ldi. Shu bilan birga hayot faqat sevis, xursandchilik qilish, qahvaxonalarda raqsga tushish, chiroyli kiyinishdan iborat deb bilgan shaharlik yigit va qizlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan filmlar ham o'zbek ekran san'atiga yangi bir sahifa bo'lib kirib keldi. Milliy kino ijodkorlarining tashkiliy va ijodiy ishlar, to'plangan tajribalarni yangicha ko'z bilan ko'rib chiqishi, ekran san'atiga talabchanlikni oshirishi natijasi o'laroq tarixiy-inqilobiy filmlar bilan bir qatorda zamonaviy mavzuda ham bir qancha filmlar ishlandi: "Shiddat", "Yoz yomg'iri", "Falokat oyoq ostida", "Sevgi fojiasi", "Alangali so'qmoqlar" , "Seni kutamiz, yigit" , "Achchiq danak", "O'zganing baxti" , "Inson qushlar ortidan boradi". "Chinor ostidagi duel" va boshqa Shuningdek, buyuk allomalar hayoti haqida so'zlovchi "Nodirabegim", Abu Rayhon Beruniy", "Olovli yo'llar" hamda "Zulmatni tark etib..." "Shum bola" (D. va boshqa O'zbek kinosi izlanishlarni kengaytirishga, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni yanada chuqur va yorqin ifodalovchi kinolentalar yaratishga intildi. Ekran son va sifat jihatdan yana bir pog'ona ko'tarildi, janrlar esa shakl va mazmun jihatdan kuchaydi, ularning xilma-xilligi oshdi, qolipga tushib qolgan odatiy mazmunlardan qochish sezildi.





Keyingi 10 yillikda milliy Kino san'ati rivojida keskin burilish davri bo'ldi. Qiziqarli filmlar yaratgan M. Abzalov, 3. Musoqov, Yu. Sobitov kabi rej. larning filmlari zamon muammolari, yoshlar hayotining eng og'riq jabhalariga qaratildi, uslublar xilma-xilligi ta'minlandi.

"Tongga qadar" (Yu. Azimov), "Ajdodlar ovozi" (F. Shermuhamedov), "Ketma" (J. Ishoqov, R. Sa'dullayev), "Sevgi qurbonlari" (A. Ismoilov) kabi filmlar e'tiborga molikdir. 1996-yil milliy kino uchun yangi muhim sana nuqtasi bo'ldi. Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 12-iyul 247-qaroriga asosan, "O'zbekkino" davlat aksionerlik kompaniyasi tashkil bo'ldi. Farmon o'zbek kinosini yangi izlanishlar, zamon bilan hamnafas bo'lish vazifalariga undadi, tomoshabinni jalb qila bilish yo'llarini topishga, o'z-o'zini pul bilan ta'minlash, yangi texnik jihozlar bilan qurollanishga majbur etdi.

Hozirgi kunda kinoning ijtimoiy nufu'zi oshdi, mavzu doirasi kengaydi, mahalliy yozuvchilar asarlarining ko'payishi ko'zga tashlanadi. Folklor, tarixiy, zamonaviy va falsafiy mavzular qayta ishlab chiqildi. "Ayollar saltanati" , "Chayongul" , "Parimomo" , "Ona" va boshqa keyingi yillarning eng yaxshi filmlaridir. Badiiy kinoni jaxrnga tanitgan, o'zbek kinosining asoschisi Nabi Faniyev, xalq artisti Komil Yormatovlar ijodi o'zbek kinosi tarixining yorqin sahifalari bo'lib qoladi. Shuningdek, Y. A'zamov, Sh. Abbosov, L. Fayziyev, 3. Sobitov, R. Botirov, A. Hamroyev, A. Qobulov, Q. Kamolova, Z. Musoqov, I. Ergashev, H. Fayziyev va H. Fayziyev, A. Pann, M. Krasnyanskiy, A. Mukarramov, M. Penson, D. Fatxullin, A. Ismoilov, L. Travitskiy, D. Abdullayev singari operatorlarning milliy kinoning kamol topishida va jahon kino san'ati katoridan o'rin olishida xizmatlari beqiyosdir. O'. Alixo'jayev, Sh. Ergashev, R. Sa'dullayev, M. Rajabov, T. Shokirova, R. Adashev, D. Qambarova, B. Zokirov, D. Egamberdiyeva va boshqa eng yaxshi kino aktyorlardir. O'zbekistonda "O'zbekfilm" dan tashqari "Vatan", "Imon", "Inson", "Yog'du", "Dostonfilm", "Samarqandfilm", "Shod", "Yuldo'z" singari kinostudiyalar ishlab turibdi. O'zbek hujjatli kinosi, asosan, 30-yillardan boshlangan. F. Nazarov, N. Gasilov, V. Timkovskiy, K. Alikayev, M. Kovnat, N. G'aniyev, Y. A'zamov kabilar hujjatli kinoning dastlabki yillarida ko'tarinki ruh bilan ishladilar va ma'lum muvaffaqiyatlarga erishdilar. "Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya", "Ajoyib ish", M. Qayumov suratga olgan "O'zbek paxtakorlarining g'alabasi", "O'zbek xalqining bayrami" "Katta Farg'ona kanali", "Kuchli oqim" filmlari yuqori baholandi. Ayniqsa, "Toshkent to'qimachilar kombinata" filmi Nyu-Yorkda o'tkazilgan jahon ko'rgazmasida Oltin medalga sazovor bo'ldi.





Urush yillari "Frontdagi do'stlarga", "Frontga sovg'a" "5 respublika konserti" kabi badiiy-hujjatli filmlar ishlandi.

Urushdan keyin hujjatli kino ijodkorlari g'ayrat va shijoat bilan oldinga yangi qadam tashlash bilan ijodini boshladi. "To'rt darvozali shahar", "O'zbekistonimizga keling", "Insoniyatning besh qo'li", "Farhod chiroqlari", "Sovet O'zbekistoni" singari kinoyilnomalarning yorqin va hayotiy kinotasmalari yaratildi.

Keyinchalik yaratilgan hujjatli filmlarda O'zbekistonda qurilayotgan zavod va fabrikalar, GESlar, qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi, fan va san'at fidoyilari hayoti va ijodi, sanoat yutuqlari, yirik xalqaro musobaqalar o'z aksini topdi: "Bahordan bahorgacha", "13 qaldirg'och", "Zilzila", "O'qituvchi", "O'zbekiston gazi va kimyosi", "Moviy olov kishilari" "Yo'lda va ona yurtda", "Ashurov voqeasi", "Ochiq aytganda", "Izlanish davom etmokda" (hammasining rej.i T. Nodirov) va boshqa shular jumlasidan. M. Qayumovning ko'p yillik ijodi o'zbek hujjatli kinosi tarixida alohida bir sahifa bo'lib qoladi. U bilan yonma-yon ijod qilgan Sh.Zohirov, T. Nodirov, A.Saidov, O.Tursunov, N.Ataullayeva, P.Rasulov, M.Arabov, A.Yoqubov, N.Rahimboyevlarning ham hujjatli kino ravnaqida xizmatlari katta.

### **Xulosa:**

"O'zbekfilm"da ko'p yillardan buyon jahonning eng yaxshi filmlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, o'zbek tomoshabiniga yetkazuvchi dublyaj guruhi xizmat qilib kelmokda. Bu sohaning asoschilari va faol ishtirokchilaridan Q. Mirmuhamedov, M. G'aniyev, S. Saidov, B. Haydarov, S. Iskandarov, J. Obidov, V. Kutyukov, A. Sharapovlarni ko'rsatish mumkin. Kino san'ati masalalari bilan San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti shug'ullanadi. Kino ijodkorlari N. G'aniyev nomidagi kinotexnikum va Toshkent San'at intida tayyorlanadi. O'zbekiston kino arboblari birlashmasi 1966-yildan Kinochilar uyi, 1972-yildan Kino san'ati muzeyi ishlab turibdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Сосновская А. Художники театра и кино. - Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1982. 65-85b
2. Aminov X.R Kino kompozitsiyasi. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2017. 42-56b
3. Abul-Qosimova X. Kinoteleradio tarixi va nazariyasi. - Toshkent, 2008
4. Скорик Е.А., Скорик А.А. Монтаж изобразительного и кинематографического пространства - Москва: Концепт. 2014. № 03 (март).
5. Иванов В.К., Калантаров Э.М. - Ташкент: Издательство советский художник. 1986





6. Lizaxon Urazmbetova Tospolatovna .Teatr san'atining rivojlanish tarixi hamda teatr san'atining mamlakatimizda tutgan o'rni. Tadqiqotlar,2023/10/21 Том 24 №1 120-123

7. Уразмбетова Л., Уразымбетова Ш. МОЛОДЁЖЬ И ИСКУССТВО //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 105-107.

8. ХОДЖАМЕТОВА," Гулчира. "Қорақалпоқ халқининг миллий маданий қадриятларининг ифодаси journal of culture and art 1.9 (2023): 9-13.

